



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 12 (14)
2025**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

12

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
Tursunov A.M. Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
Axunov M.A. Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
Исраилова Д.К. “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
Шокирова Г.М. Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
Vaxtohonova D.N. Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	36
Xasanova X.F. Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
Бегимова Д.К. Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
Mirzayev B.S. CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
Mirzarahimova A.A. Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	53
Азимов О.Т. Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
Халмирзаев А.А. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
Шоабдурахимова М.М. Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
Xolmuratov O.T. Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
Yarashev M.O., Nabieva S.A. Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	76
Кабилова К. Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
Махмудова С. Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
Захидова Ш.Ш. Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
Saidaxmedov N.X. Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
Усманова С.С. Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
Madrahimov U.A. Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	104
Джалилов Д.А. Капиталнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
Mahmudov Sh.N. Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
Ustadjalilov D.R. O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
Гайбуллаев Ф. Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
Abdurazakova F.D., Normurodov X.E. Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
Muxtarov M.M. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	136
Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H. Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

Rahmatova N.A., Mustafayeva H. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	147
Ахмедов Х. Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	154
Boboyev A.Ch. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	159
Исраилов З.А. Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	165
Ikromov A.Sh. Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	169
Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш. Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	175
Elmurodov Sh.Sh. A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	183
Axmadjonov S.S. Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	188
Sabirova Z.U. Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	192
Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R. Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	197
Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х. Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	203
Zoxidov T.M. Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	211
Nabiyeva N.M. Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	216
Sharofiddinov Sh.U. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	221
Nurmatov Z.Sh. O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	225
Содиқов А.М., Зокиров С.С. Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	230
Narmanov U., Ikromova S. Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	238
Qutbiddinov A.B. Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	241
Qayumova Sh.S. Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	246
Turebekov A.A. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	252
Kurbanova M.N., Azizov A.A. Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri.....	255
Samadova G.S. O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘sishga ta‘siri.....	259
Абдуллаева Р. Инклюзив тadbirkorликнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....	264
To‘uchiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	268
Amnah Saeed J Alhindi The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	272
Fayziyev O.R. O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	276
Алимов Р.А., Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	280
Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X. Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri.....	284
Xaydarov X.U., Raxmonov D.R. 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta‘siri.....	288
Солижонов М.А. Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	292
Rejarov X.X. Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	297

O‘ZBEKISTONDA PENSIYA TA‘MINOTI TIZIMINING MUAMMOLARI VA HAL
ETISH YO‘LLARI

ПРОБЛЕМЫ СИСТЕМЫ ПЕНСИОННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ И
ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

PROBLEMS OF THE PENSION SECURITY SYSTEM IN UZBEKISTAN AND WAYS TO
SOLUTIONS

Rahmatova Nargizaxon A‘zamxonovna

Mirzo Ulugbek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti PhD, dots.v.b.

Mustafayeva Hilola

Mirzo Ulugbek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining hozirgi holati va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida pensiya tizimidagi asosiy muammolar — moliyaviy barqarorlikning yetishmasligi, demografik yuklamaning ortishi va ish haqi hamda pensiya miqdorlari o‘rtasidagi nomutanosiblik aniqlangan. Olingan natijalar asosida pensiya jamg‘armalarini diversifikatsiya qilish, raqamlashtirish jarayonlarini kuchaytirish hamda nodavlat pensiya tizimini rivojlantirish orqali tizim samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit sozlar: Pensiya ta‘minoti, ish haqi, moliyaviy barqarorlik, demografik yuklamaning oshishi, nomutanosiblik

В статье анализируется современное состояние пенсионной системы Узбекистана и её социально-экономическое значение. В ходе исследования выявлены основные проблемы пенсионной системы: финансовая неустойчивость, рост демографической нагрузки и дисбаланс заработной платы и пенсий. На основе полученных результатов разработаны предложения по повышению эффективности системы за счёт диверсификации пенсионных фондов, усиления процессов цифровизации и развития негосударственного пенсионного обеспечения.

Ключевые слова: Пенсионная система, заработная плата, финансовая устойчивость, рост демографической нагрузки, дисбаланс

The article analyzes the current state of the pension system in Uzbekistan and its socio-economic significance. The study identified the main problems in the pension system - lack of financial stability, increasing demographic burden, and imbalance between wages and pensions. Based on the results obtained, proposals were developed to increase the efficiency of the system by diversifying pension funds, strengthening digitalization processes, and developing a non-state pension system.

Keywords: Pension system, wages, financial stability, increasing demographic burden, imbalance

Mamlakatda aholining ijtimoiy himoyasini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri pensiya ta‘minoti tizimidir. Keksalik yoshiga yetgan, mehnat qobiliyatini yo‘qotgan, shuningdek nogironligi bo‘lgan fuqarolarning munosib turmush darajasini ta‘minlash, ularning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini qo‘llab-quvvatlash pensiya tizimining asosiy vazifasini tashkil etadi. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida pensiya ta‘minotini isloh qilish, fuqarolarning pensiya huquqlarini kafolatlash, jamg‘arib

boriladigan pensiya tizimini yo‘lga qo‘yish hamda keksalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilgan.

Ijtimoiy sug‘urta iqtisodiy faol aholining ish joyi, mehnatga layoqati va daromadini yo‘qotish bilan bog‘liq turli xavf-xatardan ijtimoiy himoyalash shakli hisoblanadi. Davlatning kafolati ostida ish beruvchilar va ishlovchilarning maqsadli badallaridan shakllanuvchi maxsus byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlardan moliyalashtirilishi ijtimoiy sug‘urtaning xususiyatli jihatidir.

Jamiyatning rivojlanishi bilan ijtimoiy sug‘urtaning o‘rni keskin o‘sadi. Bunday holatni aholini ijtimoiy sug‘urtalash qamrovining kengayishi, davlat ijtimoiy ta‘minot tizimidan aholini ijtimoiy himoyalashning bozor tizimiga o‘tishi, taraqqiy etgan davlatlarda inson huquqlarini ijtimoiy himoyalashning kuchaytirilishi, ijtimoiy sug‘urta dasturining kengayishi, pensiya to‘lovlari, nafaqalar miqdorining ortishi, ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar sifatining yaxshilanishi va aholi real daromadlarining o‘sishi bilan asoslash mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy jihatdan ijtimoiy sug‘urta o‘zida fuqarolarni qarilikda, kasallik, boquvchisini va mehnatga layoqatini to‘la yoki qisman yo‘qotganlikda, ishsizlik holatlarida moddiy ta‘minlash bo‘yicha konstitutsion huquqlarini ro‘yobga chiqarish usulini aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 46-moddasida “Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo‘qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot huquqiga ega - ya‘ni pensiya, nafaqa yoki boshqa ijtimoiy yordam olish huquqi beriladi”. [1]

Davlat pensiya ta‘minoti tizimini takomillashtirish, pensionerlar huquqlarini himoya qilish, ularning moddiy farovonligini oshirish va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashda 1993 yilda qabul qilingan “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. [2] Ushbu Qonun fuqarolarga pensiya olish, nafaqalar tayinlanishi, ularning qiymati, shartlari va to‘lanishi tartibini belgilanadi. Qonunga muvofiq, pensiya turli holatlar (yoshga doir, nogironlik, boquvchisini yo‘qotish va boshqalar) asosida tayinlanadi. Ushbu huquqning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi, davlatning ijtimoiy davlat sifatidagi burchlari va majburiyatlarining ustuvorligini namoyon etadi.

Pensiya ta‘minoti tizimi bo‘yicha ilmiy izlanishlar ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan bo‘lib, ushbu tizimning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashdagi ahamiyati yuqori baholanadi. Jahon amaliyotida P.E.Samuelson, M.S.Feldstein va N.Barr tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pensiya tizimi davlatning ijtimoiy siyosati tarkibida iqtisodiyotning barqarorligi, jamiyatda ijtimoiy adolat va daromadlar qayta taqsimlanishining muhim mexanizmi sifatida talqin etiladi. Xususan, P.E.Samuelson tomonidan ishlab chiqilgan “demografik yuklama modeli” va M.S.Feldsteinning “jamg‘arib borish pensiya nazariyasi” pensiya tizimi samaradorligining demografik o‘zgarishlar va moliyaviy omillar bilan bog‘liqligini asoslab bergan. [3]

Keyingi tadqiqotlarda R.Holzmann va R.Hinz kabi olimlar pensiya ta‘minotining uch ustun — davlat pensiya tizimi, majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi va nodavlat pensiya fondlari tamoyillari asosida shakllanishi barqaror model sifatida tavsiya etilishini ta‘kidlagan. Ularning fikriga ko‘ra, pensiya tizimi islohotlari muvaffaqiyati moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish, fuqarolarning ishtirokini kengaytirish hamda demografik sharoitlarga moslashuvchan boshqaruv mexanizmlarini joriy etishga bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston olimlari tomonidan ham pensiya ta‘minoti tizimini takomillashtirish bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, T. Teshaboyev, A. Saidaxmedov, N. Usmonov va boshqalarning ilmiy ishlarida pensiya tizimi moliya barqarorligini ta‘minlash, pensiya miqdorining adekvatligini oshirish hamda bandlikni kengaytirish masalalari muhim yo‘nalish sifatida ko‘rsatib o‘tilgan [4]. Shuningdek, A.V.Vaxabov, B.S.Mamatov, N.Majidovlar pensiya tizimini isloh etish zaruratini, xususiyatlarini va rivojlantirish yo‘nalishlarini chuqur tahlil qilganlar. Ular pensiya tizimini isloh etishning jahon tajribasining tahlili, pensiya tizimini isloh etish va O‘zbekistonda pensiya ta‘minotini moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning ilg‘or tajribasidan ijodiy foydalanish, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining institutsional asoslarini takomillashtirish, nodavlat pensiya

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil

fondlarining samaradorligini oshirish va raqamli monitoring tizimini qo‘llash bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishgan.[5]

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar pensiya tizimini isloh qilish zaruriyati nafaqat iqtisodiy omillar, balki ijtimoiy adolat, demografik o‘zgarishlar va moliyaviy barqarorlik bilan ham bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda pensiya jamg‘armasining davlat budjeti transfertlari hajmi va ularning tarkibi bo‘yicha rasmiy statistik ma‘lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari tahlil qilindi. Ma‘lumotlar taqqoslama tahlil, ekonometrik tahlil usullari orqali qayta ishlanib, transfertlar ulushining barqarorlikka ta‘siri aniqlandi.

O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimi so‘nggi yillarda amalga oshirilgan institutsional va huquqiy islohotlar natijasida sezilarli darajada takomillashgan bo‘lsa-da, tizimning moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli samaradorligini ta‘minlashda qator muammolar hali ham mavjud. Ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakatda pensiya yoshiga yetgan aholining ulushi yil sayin ortib borayotgani, mehnatga layoqatli aholining ulushi esa pasayayotgani demografik yuklamaning kuchayishiga olib kelmoqda. Bu esa Pensiya jamg‘armasi xarajatlarining daromadlardan yuqori sur‘atda o‘shishiga sabab bo‘lmoqda va davlat byudjeti uchun qo‘shimcha moliyaviy yukni yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi, demografik omillarning o‘zgarishi, ishchi kuchi tarkibidagi nomutanosiblik va norasmiy iqtisodiyot ulushining yuqoriligi mavjud pensiya tizimining barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Pensiya xarajatlarining ortib borishi byudjet yuklamasining oshishi, pensiya va ish haqi miqdorlari o‘rtasidagi tafovutning saqlanib qolishi, majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining yetarlicha samarali ishlamayotgani tizimni yanada modernizatsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi. Bunday sharoitda pensiya ta‘minoti tizimini moliyaviy barqaror, adolatli va uzoq muddatda samarali bo‘lishini ta‘minlaydigan yangi yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masalaga aylangan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimi ijtimoiy siyosat markazida qolayotgan muhim masala bo‘lib, bu tizimning holatini statistik ko‘rsatkichlar aniq tasvirlaydi. Pensiya oluvchilar soni 2022-yilda 3 976,9 ming kishini tashkil etgan, 2023-yilda esa bu ko‘rsatkich 4 152,6 mingga yetib, yil davomida sezilarli o‘shish qayd etilgan. 2024 yilda esa pensiya oluvchilar soni 4,246,4 ming nafar atrofida baholangan — ya‘ni uch yil ichida pensiyachilar soni taqriban 269,5 ming kishiga oshgan.[1-jadval]


2024 yilning bahorida Pensiya jamg‘armasi ma‘lumotlariga ko‘ra pensiya oluvchilar soni 4 milliondan oshgani va 2024 yil 1 iyun holatida 4 008 597 nafar kishi sifatida qayd etilgani ham tizimga tushayotgan yukning oshayotganini ko‘rsatadi. Bu joriy demografik tendensiya keksalash sur‘ati va ishchi-aholi nisbatining o‘zgarishi pensiya xarajatlarini byudjet darajasida sezilarli darajada kengaytirishni talab qiladi.

1-jadval

Yillar kesimida pensiya olayotgan shaxslarning umumiy soni (kishi) [6]

Yillar	Pensiyanerlarning umumiy soni	Yoshga doir	Nogironlik	Boquvchisini yo‘qotgan
2022	3 588 427	2 986 662	399 432	202 333
2023	3 765 692	3 124 023	419 874	221 795
2024	3 930 390	3 260 152	436 009	234 229

Pensionerlar ulushi tarkiban ko‘radigan bo‘lsak, ushbu grafikdan ko‘rinib turibdiki, pensiya oluvchilarning umumiy soni 50% ni tashkil etadi. Shundan, yoshga doir pensiyalar 41%, nogironlik pensiyasi 6%, boquvchisini yo‘qotganlar 3%ni tashkil qiladi [1-rasm].



1-rasm. Pensiya olayotgan shaxslarning umumiy soni 2025 -yil 1-noyabr holatiga ko‘ra [7]

O‘zbekiston aholisi 2024-yil boshiga kelib 36,8 million kishini tashkil etdi. 2020–2023-yillar davomida aholi sonining yillik o‘shish sur‘ati 2,1 foizgacha tezlashib, mutlaq ko‘rinishda yiliga taxminan 700–800 ming kishiga oshdi. Taqqoslash uchun, 2010–2019-yillarda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 1,7 foizni yoki yiliga 500–600 ming kishilik ko‘payishni tashkil etgan. Aholining sezilarli qismi — 57 foizi — mehnatga layoqatli yosh toifasiga kiradi.[8] Biroq 2010-yillardan buyon mehnatga layoqatli aholining umumiy aholiga nisbatan ulushi bosqichma-bosqich qisqarmoqda. Bu jarayon 2000-yillardan hozirgi kungacha tug‘ilish darajasining barqaror o‘sib borishi bilan izohlanadi. Mazkur demografik tendensiyalar qisqa va o‘rta muddatli istiqbolda demografik yuklamaning ortishiga, uzoq muddatda esa mehnat bozori ehtiyojlarini qondirish maqsadida ko‘proq ish o‘rinlarini yaratish zaruriyatining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Yana bir muhim o‘zgarish – dunyo aholisi umumiy soni tarkibida iqtisodiy jihatdan faol bo‘lgan mehnatga layoqatli insonlar ulushini asta-sekin kamayib borishi kuzatilmoqda. Ular ulushi 2050 yilga kelib 44-56 foizgacha pasayishi tahmin qilinmoqda.[9]

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, pensiya tizimining asosiy muammolaridan biri — ish haqining rasmiy ko‘rsatilmaligi va “yashirin iqtisodiyoti”ning yuqori ulushi hisoblanadi. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mehnat bilan band aholining muayyan qismi norasmiy sektorda ishlashi, pensiya jamg‘armasiga ijtimoiy badallar to‘lovlarining qisqarishi kelajakdagi pensiya huquqlarining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, pensiya miqdorlari ko‘plab fuqarolar uchun yetarli darajada yashash standartini ta’minlay olmayapti, pensiya va ish haqi miqdorlari orasida sezilarli nomutanosiblik kuzatilmoqda.

Majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining yetarlicha faol ishlamayotgani bilan bog‘liq yana muammaslar ham bor. Jamg‘arma hisobvaraqlarida mablag‘ yig‘ilishiga qaramay, ularning investitsiyaviy mexanizmlari to‘liq yo‘lga qo‘yilmagani moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkonini cheklamoqda. Xalqaro tajribalar bilan solishtirilganda, nodavlat pensiya fondlarining rivojlanmaganligi ham raqobat muhitining sustligiga va pensiya xizmatlari bozorining cheklanganligiga olib kelmoqda.

Tadqiqot natijalari pensiya tizimining iqtisodiy, demografik va institutsional omillar ta’sirida faoliyat yuritayotganini va mavjud muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatdi. Tahlil asosida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar muhim deb topildi: pensiya tizimida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, ishchi kuchining rasmiy bandligini oshirish orqali badal to‘lovlari bazasini kengaytirish, pensiya jamg‘armalarining investitsiya faoliyatini diversifikatsiya qilish, nodavlat pensiya fondlari faoliyatini kengaytirish va fuqarolarda pensiya madaniyatini shakllantirish. Ushbu chora-tadbirlar tizimning moliyaviy barqarorligini oshirish bilan birga, aholining pensiya ta’minotidan qoniqish darajasini sezilarli darajada yaxshilashi kutiladi.

Mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirish, yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlar, kam ta‘minlanganlarni manzilli ijtimoiy muhofazalash yuzasidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Mamlakatimizda keying yillardan fuqarolarning oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olganlik davriga oid ma‘lumotlarni to‘liq raqamlashtirish hamda ushbu ma‘lumotlarni davlat xizmatlari markazlari orqali yagona elektron bazaga integratsiya qilish imkonini beruvchi mexanizmlar joriy etilishi belgilangan. Shu bilan birga, pensiya to‘lovlari naqd shaklda amalga oshirish Face-ID biometrik identifikatsiya tizimi orqali yo‘lga qo‘yilib, sayyor kassalardan foydalana olmaydigan pensionerlarga Xalq bankining sayyor kassalari tomonidan bevosita yashash manzillariga borib xizmat ko‘rsatish amaliyoti joriy etilgan. Mazkur chora-tadbirlar pensiya to‘lovlari tizimining shaffofligi, xavfsizligi va qulayligini oshirishga xizmat qiladi.[10]


O‘zbekistonda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini baholash va uni yanada takomillashtirish maqsadida xalqaro tashkilotlar ko‘magida aktuar baholash jarayoni amalga oshiriladi.

Xalqaro mehnat tashkilotining ko‘magi asosida BMTning Global akselerator tashabbusi va Jahon Bankining “Kompas” dasturi doirasida O‘zbekiston uchun “Pensiya va ijtimoiy sug‘urta islohotlarini amalga oshirish hamda institutsional salohiyatni mustahkamlash” loyihasi doirasida grant ajratiladi va ushbu loyiha Iqtisodiyot va moliya vazirligi rahbarligida, YUNISEF va Jahon banki grant mablag‘lari hisobiga 2-yil davomida amalga oshiriladi. Unda Xalqaro mehnat tashkilotining ijtimoiy ta‘minot tizimlarini aktuar baholash modelidan foydalanish nazarda tutilgan.

Fuqarolarning mavjud ish staji va ish haqlari to‘g‘risidagi elektron ma‘lumotlarga asosan pensiya miqdorlarini oldindan aniqlash bo‘yicha “Mening pensiyam” onlayn xizmati joriy etiladi. Pensiya ta‘minotiga oid barcha xizmatlar to‘liq proaktiv, elektron hamda interaktiv shaklga o‘tkaziladi.

Pensiyalar va ish haqlarining har yili kamida 10 foiz miqdorida oshirib borilishi, avvalo, inflyatsiya jarayonlari bilan bog‘liq iqtisodiy zarurat sifatida namoyon bo‘ladi. Iqtisodiyotda narxlar umumiy darajasining o‘shishi aholi real daromadlarining pasayishiga olib keladi. Shu bois, nominal ish haqi va pensiya miqdorlarining muntazam ravishda indeksatsiya qilinishi fuqarolarning real xarid qobiliyatini saqlab qolish, ularning turmush darajasini barqarorlashtirish hamda ijtimoiy himoyani ta‘minlashning muhim mexanizmi hisoblanadi. Shuningdek, ish haqi va pensiyalarning muntazam oshirilishi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish va kambag‘allik darajasini qisqartirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, pensiya yoshidagi aholining daromadlari indeksatsiya qilinishi ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirib, byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi. Bu esa pensiya tizimining institutsional barqarorligini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Makroiqtisodiy nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, 10 foizlik oshirish siyosati davlat byudjeti imkoniyatlari, inflyatsiya darajasi, iqtisodiy o‘shish sur‘atlari hamda mehnat unumdorligining o‘shishi bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi. Agar ish haqi va pensiyalar o‘shishi mehnat unumdorligi va iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga mos ravishda olib borilsa, bu jarayon inflyatsion bosimni keskin kuchaytirmasdan, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Aksincha, ushbu mutanosiblik buzilgan taqdirda inflyatsiya xavfi ortadi hamda makroiqtisodiy barqarorlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Umuman olganda, pensiyalar va ish haqlarining har yili kamida 10 foizga oshirilishi inflyatsiya ta‘sirini bartaraf etish, aholining real daromadlarini barqaror saqlash va iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan muhim davlat siyosati vositasi hisoblanadi. Mazkur natijalar pensiya tizimini uzoq muddatda samarali, adolatli va moliyaviy barqaror yo‘nalishda rivojlantirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat byudjetidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining 2021-2025-yillardagi transfer ko‘rsatkichlari taqqoslab ko‘rsatilgan. 1-grafik ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Pensiya jamg‘armasi ko‘rsatkichlari yildan-yilga o‘shib borgan. Ayniqsa 2025-yilda sezilarli o‘shish kuzatilgan. 2021-yil 16 000 mlrd so‘m ko‘rsatkich bo‘lgan, chunki bu davr pandemiyadan keyingi tiklanish yillari edi, 2022-yilda esa 14 000 mlrd so‘m eng past ko‘rsatkich bo‘lgan. 2023-yilda esa 2022-yildan yuqori 15 000 mlrd so‘m bo‘lgan va bundan jamg‘arma tushumlari oshgani seziladi. 2025-yil jadvaldagi eng yuqori ustun, 18 546 mlrd so‘mdan yuqori, ya‘ni Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari oldingi yillarga nisbatan ancha ko‘p bo‘lgan.



1-grafik. Davlat budjetidan ajratilayotgan transfertlar yillar kesimida (mlrd so‘m) [11]

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimi aholining ijtimoiy himoyasini ta‘minlashda muhim o‘rin tutishi bilan birga, demografik o‘zgarishlar, mehnat bozorining norasmiy segmenti va moliyaviy resurslarning cheklanganligi kabi omillar ta‘sirida barqarorlikka ega emasligini ko‘rsatdi. Pensiya jamg‘armasi tushumlari va xarajatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik, pensiya miqdorining yashash darajasi bilan to‘liq mos kelmasligi, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi va nodavlat pensiya fondlarining yetarlicha rivojlanmaganligi tizim samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda. Xalqaro tajribalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, pensiya tizimini barqaror rivojlantirish faqat moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish bilan emas, balki demografik, iqtisodiy va institutsional islohotlarning uyg‘un holda olib borilishi bilan amalga oshiriladi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Pensiya tizimida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish – pensiya badallarini hisobga olish, monitoring va nazoratni avtomatlashtirish orqali moliyaviy intizomni kuchaytirish.
2. Mehnat bozorining rasmiy sektorini kengaytirish – norasmiy bandlik ulushini qisqartirish va ijtimoiy badallar to‘lovini rag‘batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish.
3. Majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini isloh qilish – jamg‘arma mablag‘larining investitsion mexanizmlarini samarali yo‘lga qo‘yish va dividend daromadlarini oshirish.
4. Nodavlat pensiya fondlari va pensiya xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytirish – xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish va aholi uchun qo‘shimcha pensiya mahsulotlarini taklif etish.
5. Pensiya formulasi va pensiya miqdorining adekvatligini oshirishga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirish – pensiya to‘lovlari aholining minimal iste‘mol savati va inflyatsiya darajasi bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.
6. Pensiya madaniyatini rivojlantirish va moliyaviy savodxonlikni oshirish – aholining pensiya jamg‘armalariga qiziqishini kuchaytirish, yoshlar o‘rtasida uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Taklif etilgan chora-tadbirlar pensiya ta‘minoti tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, pensiya miqdorining adekvatligini oshirish va aholining pensiya tizimidan qoniqish darajasini ko‘tarishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda aholi turmush darajasini yuksaltirish uchun ijtimoiy ta‘minotni shu jumladan unumli ijtimoiy sug‘urta turlari tashkil etilishini qo‘llab-quvvatlash unumli amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023
2. O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minotiga»gi Qonuni. 1993 yil 3 sentyabr, №938-XII.
3. «Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига пенсия тайинлаш тартибини такомиллаштиришга қаратилган ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 26.10.2022 йилдаги ЎРҚ-795-сон.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 03.04.2020 yilgi “Коронавирус пандемияси даврида аҳоли, иқтисодиёт тармоқлари ва тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ–5978-сонли Фармони.
5. «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон.
6. Молия вазирлиги ҳузуридаги Пенсия жамғармасининг йиллик ҳисоботи. – Тошкент, 2023.
7. Barr, N. *The Economics of the Welfare State*. Oxford University Press, 2006.
8. Feldstein, M. *Social Security, Pensions, and the Life Cycle*. Harvard University Press, 1974.
9. Samuelson, P. “An Exact Consumption Loan Model of Interest with or without the Social Contrivance of Money.” *Journal of Political Economy*, 1958.
10. Holzmann, R., & Hinz, R. *Old-Age Income Support in the 21st Century: An International Perspective*. World Bank, 2005
11. Роиқ В.Д. “Социальное страхование”. Учебник и практикум для академического бакалавриата 2019 г.
12. Тешабоев Т. “Ижтимоий ҳимоя ва пенсия таъминотини модернизациялаш масалалари”. – Тошкент: Иқтисод, 2021.
13. Саидахмедов А. “Пенсия тизимида молиявий барқарорликни таъминлаш омиллари”. – Иқтисод ва таълим журнали, №4, 2022.
14. Усмонов Н. “Пенсия ислохотлари ва демографик омиллар”. – Иқтисодий таҳлил, №2, 2021.
15. Пенсия тизимини ривожлантиришнинг хориж тажрибаси: Дарслик / А.В. Вахабов, Ш.Х. Хажибакиев, Б.Б. Бахтиёрлов ва бошқалар; - Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. – 400 б.
16. Mamatov B.S. *Pensiya jamg‘armasi faoliyati*. O‘quvqo‘llanma. – Т.: “Barkamol fayz media” 2017. 280 б
17. World Bank. *Pension Systems Overview: Global Trends and Country Reforms*, 2023
18. www. pfru.uz.